



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SODDA RASMLI MASALALAR USTIDA IJODIY ISHLASH USULLARI

Alijonova Sarvinoz Ravshanbek qizi

*Ta'lismi va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang'ich ta'lismi) 2-kurs magistranti*

*Ilmiy rahbar: Asimov Alijon
Fizika va matematika fanlari doktori*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqtisodiy o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi davrda matematikaning ahamiyati yanada oshayotganligi, Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yishi, matematika o'qitish metodikasi haqida so'z boradi.*

Kalit so`zlar: matematika, metodika, o'zgarishlar, o`qituvchi, o`quvchi, sinf, shakllantirish, vazifa, imkoniyat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются о значение математики возрастает в современный период экономических преобразований, методика преподавания математики - это прежде всего задача обучения и воспитания младших школьников в общей системе, методика преподавания математики.

Ключевые слова: математика, методика, изменения, учитель, ученик, класс, образование, задача, возможность.

Annotation: *This article talks about the increasing importance of mathematics in the current period of economic change, the task of teaching and educating students of younger age in the general system, the methodology of teaching mathematics.*

Keywords: mathematics, methodology, changes, teacher, student, class, formation, task, opportunity.

Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy - tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari tog'risida Mamlakatimizda 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalişlaridan biri sifatida belgilandi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak.

Masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o`zlashtirishni tasavvur ham qilib bo`lmaydi. Matematikada masalalar yechish nazariyani amaliyotga tadbiq qilishning mutlaqo tabiiy yo`lidir. Yechilishi uchun bitta amal bajarish talab qilinadigan masalalar



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

sodda, bir necha o`zaro bog`liq amallarni bajarish talab qilinadigan masalalar murakkab masala deyiladi.

Sodda masalalar o`quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur bilimlar, ko`nikma va malakalarni tarkib toptirish uchu nasos bo`lib xizmat qiladi. Murakkab masalalar ham, bilimlarni o`zlashtirish, mustahkamlash va mukammaltirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Haqiqatdan ham boshlang'ich sinf matematika darslarida beriladigan har bir bilimlar tizimi o`quvchilarga misol va masalalar yechish asosida yetkazib beriladi.

Masala bayonida berilgan miqdorlarning son qiymatlari o`zaro funksional bog'lanishda bo'ladi.

Masalani quyidagicha tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

-Masalaning mazmuni, sharti o`zaro bog'lanishdagi sonli ma'lumotlar;

- Ma'lum sonli ma'lumotlar, savol bilan ifodalangan no'malum son;

-Masalani yechish: masala shartining mazmuniga ko'ra uning qisqa yozuvini aniqlab olish, masalani yechish rejasini aniqlash, noma'lum sonni topish;

-Masala shartini tahlil qilish, bajariladigan amallar tartibini va nima uchun shunday amallar bajarish kerakligini belgilovchi reja tuziladi. So'ngra shu reja asosida arifmetik amallar bajariladi va javobi topiladi. Shuningdek, yechishning to'g'riliqi tekshiriladi.

Masala yechishning to'rtala tarkibiy qismi to'liq bajarilsa, o`quvchilar bilimi puxta va to'liq bo'lishligi taminlanadi.

O'qituvchi o`quvchilarni masalalar yechishga o'rgatishda masala yechishning o'qitish va tarbiyalashdagi o'rni va vazifasini to'g'ri anglashi lozim. Masala yechish quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O`quvchilarda masalaning sharti, savoli, yechish, javobi kabi tushinchalar mustahkamlanadi.

2. O`quvchilarda, masala savoliga javob bo'ladigan amal va yechimini ongli va to'g'ri tanlay bilish, ko`nikmasi va malakalari shakllantiriladi.

3. Masala shartiga berilgan kattaliklar va amal hadlari orasidagi bog'lanishlarni ko'rib va tushinib boradi.

4. Turli matematik masalalarni hayot bilan bog'lash, shu yo'l bilan o`quvchilarni matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish uchun yetarlicha turli xildagi masalalarni yechish va ularga mos yechish usullarini tanlash va o'ziga mos ko'rsatish qurollardan foydalanish kerak.




"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Ma'lumki, birinchi sinflarda o'quvchilar bir va ikki amal bilan yechiladigan masalalar bilan shug'ullanadilar. Sodda masalalarni yechish uchun yetarlicha tayyorgrlik mashiqlarini o'tkazishlari lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

- O'quvchilar narsalarning rangi, shakli, o'lchami haqida;
- Narsalarning uzun – qisqaligi, keng – torligi, baland – pastligi haqida;
- Ustida – ostida, chapda – o'ngda, yuqorida pastga, pastdan yuqoriga kabi tushunchalar haqida;
- Bir xil, har xil, ko'p, kam, shuncha marta ortiq, shuncha marta kam tushunchalari;
- Har bir, hammasi, shundan boshqa hammasi tushunchalarining ma'nosini o'zlashtirib olishlari zarur.


Geometrik bilimlardan nuqta, to'g'ri chiziq, to'g'ri chiziq kesmasi, siniq chiziq va egri chiziq tushunchalari bilan ham tanishtiriladi. So'ngra o'quvchilarda o'n ichida sonlarni sanash qobiliyatları hosil qilinishi lozim. Shundan keyin o'quvchilarda rasmlarga qarab masala tuzish va uni yechish imkoniyati hosil bo'ladi. Masalan:

1. Songa 0 ni qo'shish va sondan 0 ni ayirishga doir masala tuzing:



? ta

2. 2 sonini ayirishga doir masala tuzing:



Akbarda ___ 6 ta

Olimda __?, 2 ta kam

3. Qo'shishning hadlariga doir masala tuzing:






"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

?

4. Qo'shiluvchilarini o'rinlarini almashtirish qoidasiga doir quyidagi rasm asosida masala tuzing:



--	--	--	--	--

--	--	--	--	--

5. Noma'lum qo'shiluvchini topishga doir masala tuzing:



3 ta

? ta

5 ta

6. Noma'lum kamayuvchini topishga doir rasm va qisqa yozuv asosida masala tuzing va uni yeching:



Bor edi – ? ta

Olindi – 2 ta

Qoldi – 4 ta

7. Kilogramm va undan og'ir tushunchasiga doir quyidagi rasm asosida masala tuzing va uni yeching:






"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Qovun _ 8 kg

Tarvuz __ ?, 2kg og'ir

8. Yig'indi va ayriluvchini topishga doir quyidagi rasm asosida masala tuzing va uni yeching:



So'ngra sodda masalalarni yechishga o'quvchilarni o'rgatish maqsadga muvofiq.

1. Masalani o'qish va ma'nosini aytib berish.
 2. Masalani yo'naltiruvchi savollar bilan takrorlash.
 3. Masalaning savolini ajratish.
 4. Masalani ko'ngilda yechish va og'zaki javob berish.
 5. Masalaning qaysi amal bilan yechilishini aniqlash.
 6. Masalani yechilishini yozish.
 7. Masala javobini qisqa va to'g'ri jumla bilan ifodalash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

- 1.Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. . "Turon-Iqbol" 2016 yil .
 - 2.Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G` Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (OO`Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005 yil.
 3. Jumayev M.E, Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasidan praktikum. (O O`Y uchun) Toshkent. "O`qituvchi" 2004 yil.
 - 4.Bikbayeva N.U.,Matematika – 4- sind darsligi .-T,2013.
 - 5.Burxonov S,Xudoyorov O',Norqulova Q. Matematika 3-sinf darsligi- T,2014.
 - 6.Rayhonov Sh.,Qosimov F,Saidova M. Boshlang'ich sinflarda harakatga doir masalalar.-Buxoro,"Durdona" n,2015.